



# “RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami



Digital object  
identifier



Google  
Scholar



OpenAIRE

2024-yil 24-aprel

**RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA  
O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI  
VA XORIJIY TIL SIFATIDA  
O‘QITISH MASALALARI:  
MAHALLIY VA XORIJIY  
TAJRIBA**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami

---

Toshkent, O‘zbekiston

2024-yil 24-aprel

**RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI  
DAVLATTILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH  
MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**MATERIALLARI TO‘PLAMI**

---

Toshkent, O‘zbekiston

**COLLECTION OF  
MATERIALS**

from the international scientific and practical conference

**ISSUES OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE AS A  
STATE LANGUAGE AND A FOREIGN LANGUAGE IN  
THE PERIOD OF DIGITALIZATION: LOCAL AND  
FOREIGN EXPERIENCE**

---

Tashkent, Uzbekistan

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ**

международной научно-практической конференции

**ВОПРОСЫ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО  
ЯЗЫКА КАК ГОСУДАРСТВЕННОГО И  
ИНОСТРАННОГО В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ:  
ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ**

---

Ташкент, Узбекистан

# **“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

Raqamlashtirish davrida o‘zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba / –Toshkent. – 2024. – 761 b.

Ushbu to‘plamga 2024-yil 24-aprel kuni O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida tomonidan o‘tkazilgan “Raqamlashtirish davrida o‘zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.

Maqola va tezislarning mazmuni, uslubi va imlosiga, keltirilgan ma’lumotlarga mualliflarning o‘zlari mas’ul.

## **Mas’ul muharrir**

Zilola Salisheva

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

## **Taqrizchilar**

Safo Matchon,

pedagogika fanlari doktori, professor

Yashnarbek Avlakulov,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

## **Tahrir hay’ati**

Musajan Tadjiboyev

Aydin Mo‘minova

Nazokat Jiyanova

Saida Maksumova

Munira Sharipova

Salima Jumayeva

Mohigul Fozilova

Dilfuza Pulatova

Shohista Zoitova

## **Maqolalarni to‘plab, nashrga tayyorlovchi**

Shaxlo Yuldasheva

Ushbu to‘plam O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti kengashining 2024-yil \_\_\_\_\_ -sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. -

## **MORFOLOGIK SHAKLLARNING NUTQDA QO‘LLANISH DARAJASINI ANIQLASHNING AHAMIYATI VA AMALIY BOSQICHLARI**

**Nasirdinova Oydinniso**

*ToshDO‘TAU tayanch doktoranti,*

[oydinnisonasirdinova0@gmail.com](mailto:oydinnisonasirdinova0@gmail.com)

+998977133001

Zamonaviy va tezkor dunyoda jamiyatdagi barcha sohalarda, shuningdek, tilning ijtimoiy holatida ham o‘ziga xos o‘zgarishlar shakllanadi. Insoniyat hayotining yengillashuvi, zamonning “tez va oson” formulada shiddat bilan rivojlanishi tildan foydalanishda ham qulaylikka intilishni namoyon qiladi. Ayniqsa, tilning nutqda qo‘llanish masalasida tizimlilik va optimallikka erishish birlamchi omildir. Tilshunoslikda morfologik sath yoki paradigmani nutqda qo‘llash va voqelanishiga ko‘ra darajalash tilni maqsadli tarzda o‘qitilishini, boshqa sath birliklari bilan birgalikda bir tizim mushtarakligini ta’minlaydi.

O‘zbek tili morfologik jihatdan agglyutinativ, grammatik shakllarning ko‘pligi va serqirraligiga ko‘ra boy til. Har bir grammatik shaklning o‘ziga xosligi uning nutqda turli uslublar, og‘zaki va yozma shaklda voqelanishida namoyon bo‘ladi. Morfologik shakllarning og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanish darajasini aniqlash, ularni faol va nafaol turlarga ajratish mezonlarini ishlab chiqish, sermahsul morfologik shakllarni guruhlariga bo‘lish o‘zbek tilini xorijliklarga bosqichma-bosqich va maqsadli o‘qitish jarayonini osonlashtirishga, hozirgi o‘zbek adabiy tilida morfologik shakllarning ishlatilishida miqdor va sifat jihatidan faolligini aniqlashda dasturulamal sifatida xizmat qiladi, xususan, o‘zbek tili korpusida morfologik belgilarning darajali jamlanmasining yaratilishini ko‘zda tutadi.

Morfologik birliklarning nutqda qo‘llanish darajasini aniqlashda jahon va o‘zbek tilshunosligida bu borada qilingan ilmiy tadqiqotlarning sarhisobi va tahlilini amalga oshirish zarur. Ma’lum tadqiq metodologiyasi asosida birlamchi vazifalar aniqlanib, bajariladigan ishlarning “yo‘l xaritasi”ni tuzish har qanday tadqiqot uchun muhimdir. Jahon tilshunosligida morfologik mahsuldorlik derivatsional morfologiyaning asosiy masalalaridan biri bo‘lib, u hosilaviy morfologiyada til foydalanuvchisining bir qancha omillariga bog‘liq tarzda o‘rganiladi. Xususan, individual so‘zlashuv uslubi va tajriba, xotira qobiliyati, kommunikativ ehtiyojlar, til jamoasida mavjud nutq uslublari, shaxsiy til odatlari va muloqot qilish imkoniyatlari kabilar. Morfologik mahsuldorlik so‘z yasashini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Bauer [1, p.13] ning fikricha, agar affiks mahsuldor bo‘lsa, undan yangi so‘z yasashda foydalanish mumkin, chunki unumli affiks ko‘p yangi so‘zlarni hosil qila olishi kerak. Tildagi

mahsuldor elementlar faolligini aniqlash uchun ma’lum til darajasi (A, B, C) dagi affikslarni o‘z ichiga olgan so‘zlar to‘plamining hajmi hisoblanadi, ya’ni affiks qancha ko‘p so‘zlarga bog‘lansa, u morfologik birlik shunchalik mahsuldor bo‘ladi.

Ingliz tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan 20 000 ta so‘zning 20 foizi prefikslar (old qo‘shimchalar) asosida tuzilgan. Bu so‘zlar orasida 15 ta prefiks ishlatilgan bo‘lib, ular 82% so‘zda namoyon bo‘lgan [2, p.11]. Shulardan eng ko‘p uchraydigan prefikslar *un-, re-, de-, pre- va dis-, while-* qo‘shimchalar, *-able/ible, -al/ial, -er/or, -ion, -ly, -ness, -y* kabilar esa eng faol qo‘shimchalar sifatida baholangan. Akademik ingliz tilida yangi so‘zlarni hosil qilishda *ko-, dia-, fore-, gidro-, inter-, izo-, poli-, sub-, trans-, termo-, under-* kabi prefikslar yetakchilik qilgan.

So‘z yasashining mahsuldorligi bo‘yicha korpusga asoslangan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, morfologik mahsuldorlik muammosi bilan bog‘liq savollarga uzoq vaqtdan beri izlanadigan yechimlarni topish uchun katta kompyuter korpuslaridan samarali foydalanish mumkin. Ayniqsa, Baayen va Renouf tomonidan tuzilgan korpuslar mahsuldorlikni nutq turiga ko‘ra farqlamay turib, bir qator affikslarning mahsuldorligi haqidagi da’volarini bayon qilganlar, garchi odatda, hosila qo‘shimchalarining ayrim turlari boshqa matn turlariga nisbatan ko‘proq mos keladi, deb taxmin qilinadi. Ushbu keng tarqalgan taxmin qay darajada to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi va u yuqorida aytib o‘tilgan tadqiqotlar natijalarini qanday buzib ko‘rsatishi mumkinligi hozircha noma’lum. Nutq uslublarining o‘zgarishi bo‘yicha tadqiqotlar turli uslublar yoki matnlar o‘rtasida kuzatilishi mumkin bo‘lgan sintaktik va leksik farqlarning butun doirasi mavjudligini juda batafsil ko‘rsatdi. Bunday xususiyatlarning klasterlashuvi hatto nutqning ma’lum bir turini belgilashda ham ishlatilishi mumkin. [4, p 1]

Qo‘shimchalarni shu tarzda faol va nofaol turlarga ajratish so‘z yasovchilik xususiyatiga ko‘ra amalga oshirilgan. Grammatik qo‘shimchalar flektiv tillarda kamligi hisobiga bu borada tadqiqotlar kam. Chunki grammatik ma’no qo‘shimchalarning fleksiya hodisasiga uchrashi natijasida so‘zning asosida muallaq holatga o‘tadi. O‘zbek tilida esa agglutinatив xususiyat har bir grammatik birlikni grammatik ma’nosi va shakli bilan birgalikda alohidalaydi. Morfologik birliklar ma’lum grammatik kategoriyalar tizimiga bog‘lanadi, o‘z-o‘zidan o‘zbek tilida hozirda mavjud 11 grammatik kategoriya (egalik, kelishik, son, nisbat, zamon, mayl, shaxs-son, daraja, bo‘lishlik-bo‘lishsizlik, harakat tarsi, o‘zgalovchi (fe’ning xoslangan shakli) kategoriyasi) mohiyatan morfologik va sintaktik tabiatiga ko‘ra substansional tilshunoslik yetakchilari talqinida quyidagicha ta’riflanadi: “Morfologik kategoriya so‘zning lug‘aviy ma’nosiga aloqador bo‘lib, so‘z

turkumining tasnifiy belgisi hisoblanadi, boshqa turkumdan ajratib turadi va qo‘llanilishi, asosan, shu turkum bilan chegaralanadi: otda son, fe‘lda nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, harakat tarsi, sifatda daraja. Sintaktik kategoriya mohiyati sintaktik shakl mohiyati bilan bog‘liq bo‘lib, so‘zning lug‘aviy ma‘nosi bilan bog‘liq bo‘lmaydi, gap bo‘lagi vazifasida kela oladigan istalgan so‘z turkumiga qo‘shilib, gap qurilishida ishtirok etadi: egalik, kelishik, kesimlik (ichki paradigmasini zamon, mayl, shaxs-son tashkil etadi)”. [3, 223-b]

Yuqoridagi ma‘lumotlarga asoslanib, o‘zbek tilida morfologik shakllarning og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanish darajasi statistik metodlar orqali aniqlashda bir qator bosqichlardan o‘tish kerakligini quyidagi bosqichli jarayonlar asosida xulosalash mumkin:

**Ma‘lumotlar to‘plash.** Dastlab, o‘rganilayotgan morfologik shakllarning og‘zaki va yozma nutqdagi qo‘llanishini tahlil qilish uchun keng ko‘lamli ma‘lumotlar to‘planadi. Og‘zaki nutq uchun audio yoki video yozuvlarini, yozma nutq uchun esa matnli manbalar (kitoblar, maqolalar, veb-sahifalar va h.k.) yig‘iladi.

**Ma‘lumotlarni tayyorlash.** To‘plangan ma‘lumotlarni tahlil qilishga tayyorlash kerak. Bu jarayonda audio yoki video yozuvlardan transkripsiyalar tayyorlanadi, matnlar esa tahlil qilish uchun kerakli formatga keltiriladi.

**Morfologik tahlil.** Har bir so‘zning morfologik tuzilishini tahlil qilish lozim. Buning uchun avtomatlashtirilgan morfologik tahlil dasturlaridan foydalanish yoki bu ishni qo‘lda bajarish ham mumkin. Natijada, har bir so‘zning qaysi morfologik shakllarga ega ekanligi aniqlanadi.

**Statistik tahlil.** Endi morfologik shakllarning og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanish chastotasini hisoblash vaqti kelgan. Bu uchun turli statistik usullar, masalan, chastota tahlili, chi-kvadrat testi, t-testi kabi usullar qo‘llanilishi mumkin. Bu usullar yordamida morfologik shakllarning qo‘llanishida muhim farqlar bor-yo‘qligini aniqlash mumkin.

**Natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.** Statistik tahlil natijalarini tahlil qilib, og‘zaki va yozma nutqda qaysi morfologik shakllarning ko‘proq yoki kamroq ishlatilishini aniqlash orqali ularni faol va nafaol turlarga ajratish lozim. Bu jarayon morfologik shakllarning turli nutq shakllarida qo‘llanish darajasini aniq va obyektiv tarzda aniqlash imkonini beradi.

Demak, o‘zbek tilida morfologik birliklarning nutqda qo‘llanish darajasini aniqlashda, avvalo, ularning turlari, kategorial xususiyatlari, miqdoran tarkibi va adabiy tilidagi sinxronik varaintlarining ro‘yxati shakllantiriladi. Nutqda qo‘llanishi bilan bog‘liq jihatlar nutq uslublari va shakllari doirasida yig‘ilgan og‘zaki va yozma

matnlar asosida statistik metodda ko‘rib chiqiladi. Shundan so‘ng ularning nutqdagi mahsuldorligi va muayyan tamoyillar asosida faol va nafaol birliklarga ajratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bauer Laurie. Morphological productivity. Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 245 p.
2. Roe Betty D., Barbara D. Stoodt, and Paul C. Burns. Secondary School Reading Instruction: The Content Areas. Boston: Houghton Mifflin Co., 1987. – 512 p.
3. Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya. Monografiya. Toshkent, 2008. – 522 b.
4. Ingo Plag, Christiane Dalton-Puffer, Harald Baayen. Morphological productivity across speech and writing. To appear in English language and linguistics 3.2. November 1999. <https://www.researchgate.net/publication/2562906>.

**“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

57.	<b>ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ДЕРИВАТОВ С БАЗОВОЙ СЕМОЙ "КОЛИЧЕСТВО" В ХУДОЖЕСТВЕННОМ МИКРОТЕКСТЕ</b> Шевцова О.В.	340-344
58.	<b>THE COMPLEXITIES OF PHRASEOLOGICAL UNIT CLASSIFICATION</b> Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna	345-351
59.	<b>EXPLORING THE ROLE OF LEXICOGRAPHY IN LINGUISTICS</b> Abdullaeva Umida Nigmatullaevna, Salisheva Zilola Ismailovna, Aliboeva Mavludakhon Komiljon qizi	352-354
60.	<b>BADIIY MATNDA ALLYUZIV NOMLAR</b> (Ulug‘bek Hamdamning “Yo‘l” romani misolida) Amirova Dildora Karim qizi	355-357
61.	<b>O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTINI O‘RGANISHDA TEXNOLOGIK YONDASHUV</b> Botirova Nigora	358-361
62.	<b>MILLIY XARAKTER YARATISHDA BADIIY TILDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI</b> G‘ayratova Olima Gayrat qizi	362-367
63.	<b>ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ КАЗАХСКОГО ЯЗЫКА И ПОВЫШЕНИЕ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ</b> Нүркен Назира Маратқызы, Салим Айдана Кайргельдықызы	368-371
64.	<b>ФУТБОЛЬНЫЙ ДИСКУРС: ЯЗЫКОВАЯ ВАРИАТИВНОСТЬ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА</b> Хасанов Зафар Бахтиёрович	372-376
65.	<b>QISSA JANRIGA OID BO‘LGAN ASARLAR TAMLILIGA INNOVATSION YONDASHUV (SH. AYTMATOVNING “OQ KEMA” QISSASI ASOSIDA)</b> Otayeva Nafisa	377-380
66.	<b>ОСОБЕННОСТИ ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ОБЩЕНИЯ</b> Юлдашева Фароғат	381-384
67.	<b>TOSHKENT SHAHRI EKKLEZIONIMLARI</b> Zoitova Shoxista Asqarovna	385-389
68.	<b>СИНГОРМанизм заңдылығын оқыту барысында жүргізілетін жаттығу жұмыстарының өзіндік ерекшеліктері</b> Батырбеков Ерсейіт	390-396
69.	<b>АХМЕТ БАЙТҰРСЫНҰЛЫ ЖӘНЕ ТЕРМИНОЛОГИЯ МӘСЕЛЕЛЕРІ</b> Мағжан С., Батыр Ф.	397-400
70.	<b>ҚОЗОҚ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ ФРАЗЕОЛОГИЯСИНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИГА ДОИР</b> Сайфуллаев Бауржан Нурумбет ўғли	401-408
71.	<b>THE ROLE OF IDEA EXPRESSION IN THE FORMATION OF ARTISTIC CRITERIA IN THE WORK OF OYDINNISO AND GULJAMOL ASKAROVA</b> Akmuratova Bibisanem	409-412
72.	<b>NUTQIY MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH</b>	413-415

**“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

	<b>Yuldasheva S.F.</b>	
73.	<b>MORFOLOGIK SHAKLLARNING NUTQDA QO‘LLANISH DARAJASINI ANIQLASHNING AHAMIYATI VA AMALIY BOSQICHLARI</b> <b>Nasirdinova Oydinniso</b>	416-419
74.	<b>МИЛЛАТ КОНЦЕПТИ ФАОЛЛАШУВИДА ТИЛ ФРЕЙМИ ФАОЛЛАШУВИ</b> <b>Бўриева Нилуфар Ғофур кизи</b>	420-427
75.	<b>INTERFAOL METODLAR ASOSIDA NASRIY ASARLARNI TAHLIL QILISH</b> <b>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</b>	428-433
76.	<b>O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTINI O‘RGANISHDA TEXNOLOGIK YONDASHUV</b> <b>Botirova Nigora</b>	434-437
77.	<b>MODERN METHODS IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE</b> <b>Shodmonova Sayyora Dilmurod kizi, Salisheva Zilola Ismailovna, Abdullayeva Umida Nigamatillayevna</b>	438-440
78.	<b>КРАТКИЙ ОЧЕРК АРМЯНСКОГО ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ</b> <b>Мартиросян Армине Ж.</b>	441-448
79.	<b>TURKCHA JURNALISTIKAGA OID MURAKKAB TERMINLAR TARJIMASI XUSUSIDA</b> <b>Hamidov Xayrulla Xudoyorovich, Karausta Arzu</b>	449-452
80.	<b>INGLIZ TILI DUNYO TILI SIFATIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI</b> <b>Sapayeva Fazilat</b>	453-456
81.	<b>INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA HIS-HAYAJON GAPLARNING SHAKLLANISHDA EMOTIV SO‘ZLARNING O‘RNI VA ROLI</b> <b>Minosidinov Sherzodbek</b>	457-462
82.	<b>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИАЛЕКТИЗМОВ В ТВОРЧЕСТВЕ УТКИРА ХОШИМОВА</b> <b>Салишева Умида</b>	463-467
	<b>V SHO‘BA. TIL TA‘LIMIDA ADABIYOT, MADANIYAT VA SAN‘ATNING MUSHTARAKLIGI</b>	
83.	<b>MILLIY TILSHUNOSLIGIMIZ TARAQQIYOTIDA ANTROPOTSENTRIK PARADIGMANING O‘RNI</b> <b>Xudoyberganova D. S.</b>	468-471
84.	<b>МИГРАНТ-ЯЗУЧЫЛАР ИЖАТЫНДА МЭДЭНИЯТАРА ДИАЛОГ (А.ГЭРЭБЕВА-АКЧУРА ИЖАТЫ МИСАЛЫНДА)</b> <b>Каюмова Гелюся Фаридовна</b>	472-475
85.	<b>“МУҲОКАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН” АСАРИДА ҚИЁСИЙ МЕТОДОЛОГИЯ АСОСЛАРИ</b> <b>Халлиева Гулноз Искандаровна</b>	476-479
86.	<b>TILDA RANGLAR NOMINATSIYASI VA ASSOTSIATSIYA</b> <b>Lutfullayeva Durdona</b>	480-486
87.	<b>TARIXIY ROMANLARDA BADIY KELASI ZAMON IFODASI</b> <b>To‘rayeva Bahor Bahriddinovna</b>	487-494